

# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

### Korxonalar va tashkilotlar



(2019-yil 1-may holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan  
o'tgan

17505  
ta.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2124 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 767 taga ko'pdir.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

17115  
ta.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1943 ta (12,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17115 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

2124  
ta.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)


17505 tani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar  
soni, birlikda



12,0 %


O'tgan yilning shu  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati



2019-yilning 1-may holatiga 17505 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,9 % savdo, 13,3 % sanoat, 10,8 % qurilish, 7,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa, hamda 28,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (4532 ta) savdo, (2335 ta) sanoat, (1900 ta) qurilish, (1224 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1228 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (728 ta) tashish va saqlash, (298 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (302 ta) axborot va aloqa, hamda (5036 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **17115** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda **2302** ta (15,5 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Axborot va aloqa




Boshqa turlar



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3658 ta), Denov (1986 ta), Jarqo'rg'on (1279 ta), Termiz (1149 ta) va Sho'rchi (1128 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (654 ta), Muzrabot (762 ta) hamda Boysun (836 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2124 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 767 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (838 ta), sanoat (465 ta), qurilish (251 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (168 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (150 ta) sohalarida tashkil etilgan.

Eng kamida esa tashish va saqlash (47 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (22 ta) hamda axborot va aloqa (18 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



838

Tashish va saqlash



47

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



150

Qurilish



251

Sanoat



465

Axborot va aloqa



18

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



22

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



168


Boshqa turlar



165

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (387 ta), Denov (314 ta), Sho'rchi (176 ta) va Termiz (165 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Muzrabot (87 ta), Sariosiyo (74 ta) hamda Oltinsoy (73 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 13603 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



248 ta



O'tgan yilning shu davriga nisbatan 314,0 % o'sgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**


Asosiy qismi Afg'oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 248 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 169 taga yoki 314,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Afg'oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda






Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 88 tasi qo'shma, 160 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar (109 ta yoki jamidagi ulushi 44,0 %), Termiz (27 ta yoki 10,9 %), Uzun (18 ta yoki 7,3 %), hamda Denov tumanlarida (14 ta yoki 5,7%) hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun (2 ta yoki 0,8%), Oltinsoy (3 ta yoki 1,2 %), Qumqo'rg'on (6 ta yoki 2,5 %) va Sherobod (7 ta yoki 2,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.






# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, savdo va boshqa faoliyat turlarida to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 68 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga ko'paygan.



Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 49 ta, Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasi 4 tadan, Hindiston Respublikasi rezidentlari ishtirokida - 3 ta, Xitoy va Turkmaniston Respublikasi 2 tadan, Gretsiya, Qozog'iston, Pokiston va Gruziya Respublikalari - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (20 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (19 ta), sanoat (14 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (6 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 ta) va boshqafaoliyat turlari (5 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)



*2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13470 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,2 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-aprel oylarida 2062 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 852 taga ko'proqdir.*





•Kichik tadbirkorlik  
subyektlarining eng katta  
ulushi

•Kichik tadbirkorlik  
subyektlarining eng kichik  
ulushi

•Termiz shahar  
23,2 %

•Qiziriq tumani  
5,3 %

•Denov tumani  
11,8%

•Uzun tumani  
5,1 %

•Jarqo‘rg‘on tumani  
7,5 %

•Angor tumani  
5,0 %

•Termiz tumani  
7,3 %

•Boysun tumani  
4,9 %

•Sho‘rchi tumani  
6,6 %

•Sariosiyo tumani  
4,6 %

•Qumqo‘rg‘on tumani  
5,8 %


•Muzrabot tumani  
4,2 %

•Sherobod tumani  
5,6 %

•Oltinsoy tumani  
3,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13470 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4445 tasi (33,0 %) - savdo, 2271 tasi (16,9 %) - sanoat, 1882 tasi (14,0 %) - qurilish, 1141 tasi (8,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1195 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 700 tasi (5,2 %) - tashish va saqlash, 235 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 209 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1392 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Axborot va aloqa    Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish    Tashish va saqlash  
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar    Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi    Boshqa turlari  
Qurilish    Sanoat    Savdo

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdoda (838 ta), sanoatda (465 ta), qurilishda (251 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (167 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (22 ta), hamda tashish va saqlashda (47 ta) tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (365 ta), Denov (309 ta), Sho'rchi (170 ta) va Termiz (163 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Sarosiyoy (70 ta), Oltinsoy (72 ta), hamda Muzrabot (82 ta) tumanlarida tashkil etilgan.




# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-may holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-may holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,9 % yoki 299 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,8 % yoki 234 tasi sanoat, 23,6 % yoki 214 tasi savdo, 10,4 % yoki 94 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 9 tasi qurilish, 1,1 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1% yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,6% yoki 42 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda

**Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarlarni yuritish  
bo'limi  
Tel.:71-230-85-90(91)**